

UDK: 81

**“ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARNING GRADUONIMIK XUSUSIYATLARI HAQIDA**

**Tilavova Munisxon Alijon qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o‘zbek va rus tillari

kafedrasi o‘qituvchisi,

Bux DU o‘zbek tilshunosligi va

jurnalistika kafedrasi mustaqil

izlanuvchisi

[tilavovamunisxon94@gmail.com](mailto:tilavovamunisxon94@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning graduonimik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Graduonimiya hodisasi o‘z xususiyatlariga ko‘ra sinonimlarga bir qadar o‘xshaydi. Ma’lumki, sinonimik qatordagi uslubiy jihatdan betaraf so‘z dominanta bo‘lib, dominanta sinonimik qatordagi istalgan so‘zning o‘rnida qo‘llanila oladi.

**Kalit so‘zlar:** Graduonimiya, daraaja, dominanta, leksik-semantik qator, emotsional-ekspressiv imkoniyati, konnotativ ma’nolar.

Graduonimiya lotincha so‘z bo‘lib, grdus – daraja, nomos – nom demakdir.

Bir turdagi narsa, belgi, harakat, tushunchalarning turlicha darajasini ifodalovchi lug‘aviy birliklardan iborat leksik-semantik qatorlar **graduonimlar** deyiladi.

Graduonimiya hodisasi o‘z xususiyatlariga ko‘ra sinonimlarga bir qadar o‘xshaydi. Ma’lumki, sinonimik qatordagi uslubiy jihatdan betaraf so‘z dominanta bo‘lib, dominanta sinonimik qatordagi istalgan so‘zning o‘rnida qo‘llanila oladi. Graduonimik qatorlarda ham xuddi shunday. Ba’zi ilmiy risolalarda graduonimlar leksik sinonimlarning bir ko‘rinishi sifatida e’tirof etilishining sababi ham shular bilan bog‘liq. (Eslang: Mir Alisher Navoiy o‘zining «Muhokamatul-lug‘atayn» nomli ilmiy asarida turkiy tilda «yig‘lamoq» fe‘lining darajalanish qatoridagi qirqqa yaqin leksik birlik (ingramoq – singramoq – yig‘lamoq – siqtamoq - o‘kurmoq - hay-hay yig‘lamoq kabilar)ni ma’nodoshlar sifatida e’tirof etgan edi).

Ammo sinonimlar shaklan har xil, ma’no jihatidan aynan bir xil tushunchani bildirsa, graduonimlar ma’no nozikligi jihatidan farqlanuvchi birliklarni ifodalaydi. Masalan, shipshitmoq – pichirlamoq – shivirlamoq – aytmoq – gapirmoq (so‘zlamog) – baqirmoq; yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq;

tashlamoq – otmoq – irg‘itmoq;

nasim – shabada – shamol – yel – bo‘ron;

kulba – hujra – xona – uy – hovli – qasr – saroy – koshona...

Darajalanish leksemalararo, frazemalararo, va leksema hamda frazemalarning oralig‘ida (bog‘lanishlarida) voqea bo‘lishi mumkin. Shularga asoslanib, leksik, frazeologik graduonimiyalar haqida gapirish o‘rinlidir.

O‘zbek tilshunosligida graduonimiya – darajalanish so‘zini tilshunoslik atamasi sifatida birinchilardan bo‘lib, Rohatoy Safarova qo‘llagan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Сафаров Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале обще употребительных зоонимов): дисс... канд.филол. наук. – Ташкент, 1990.

“Gradatsiya” tushunchasini fanga fransuz tabiatshunosi J.B.Lamark olib kirgan. Bu soʻz lotin tilidagi gradation (asta sekin ortib borish) maʼnosini bildirib, u gradus – bosqich, daraja soʻzidan kelib chiqqan. J.B.Lamarkning evolyutsion nazariyasiga koʻra gradatsiya jonli mavjudodlarning filogenez jarayonida bosqichma-bosqich mukammallashib borishini bildiradi<sup>2</sup>.

Demak, lugʻatlarda qayd etilganidek, “gradatsiya” atamasi lotincha gradatio asta-sekin oshirish soʻzidan kelib chiqqan, bu soʻz ham jarayonning faqat bitta (ortuvchi) yoʻnalishini qayd etadi. Mazkur holatni shu bilan izohlash mumkinki, til inson uchun kontsept toʻgʻrisidagi eng ahamiyatli boʻlgan axborotni aks ettiradi. Zero, real hayotda ortish va kamayish jarayonlari bir xil namoyon boʻladi, biroq, inson faoliyatining turli koʻrinishlarida oshib boruvchi gradatsiya koʻproq ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik graduonimlarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ular u yoki bu frazeologik birlikning emotsional-ekspressiv imkoniyatini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

**Koʻngli buzilmoq – koʻngli ranjimoq – koʻngli ozor topmoq – koʻngli gʻashlanmoq – koʻngli ogʻrimoq – koʻngli yaralanmoq – koʻngliga oʻtlar tutashmoq – koʻnglini vayron qilmoq**

Soʻfiylik yoʻlini tutuvchi solik bu holni koʻrgach, shayxi uchun **koʻngli buzilib** oh urdi. Soʻng shaharga qaytib, butxona boshligʻini topdi va maqsadini aytdi. (31-bet)

Masalan, ota-ona bir ish buyursa farzand bu ishni toʻgʻri hisoblamay rad etishi mumkin. Bunda ham albatta ota-onaning **koʻngli ranjiydi**. (60-bet)

Oʻgʻil esa otasini hovli etagidagi zax xonaga koʻchirdi. Kelin endi qaynotasiga eski yogʻoch kosada taom beradigan boʻldi. Bundan **koʻngli ozor topgan** qariya vafot etib ketgan kampirini eslab, zor-zor yigʻlardi. (49-bet)

Ishdan charchab qaytdingiz, yoki **koʻnglingiz** bir nimadan **gʻash**. Oʻzingizcha «uff» deb qoʻydingiz. Bilmaysizki, shu «uff»ingiz bilan ota-onangiz qalbini tilib yubordingiz. (57-bet) –Vijdonim qiynalayotgani rost. Sen biznikiga birinchi marta boryapsan. Xotinim kasal, uy ivirsib yotgandir, seni koʻngildagidek kutib ololmasam-chi, deb **koʻnglim gʻashlanyapti**, – dedi toshbaqa sir boy bermaslikka tirishib. (134-bet)

Paygʻambarimizning (s.a.v.) axloqi bilan axloqlanmagan bir odam tushida Rasulullohni koʻribdi. Ajabki, Allohning rasuli unga hech eʼtibor bermabdilar. Odamning bundan **koʻngli ogʻrib**, soʻrabdi:

–Ey Allohning rasuli, mendan xafamisiz?

–Yoʻq,–debdilar Rasululloh (s.a.v.).

–U holda nega menga qaramayapsiz?

–Chunki men seni tanimayman,–debdilar Sarvari olam (s.a.v.).

–Nega tanimaysiz? Men sizning bir ummatingizman. Holbuki, olimlarning aytishlaricha, siz har bir ummatingizni ona oʻz farzandini taniganidan ham yaxshiroq tanir ekansiz.

–Toʻgʻri aytding,–debdilar Paygʻambarimiz (s.a.v.),–lekin men senda mening goʻzal axloqimdan biron alomat koʻrmayapman. Va sening menga hech salot-u saloming kelmadi. Mening ummatimdan birini tanishim – unda axloqimning qay darajada borligiga bogʻliq. (20-bet)

Turkigoʻy shoirlardan Adib Ahmadning bu nasihatini yodlab olsak-da, otamiz yoki onamizga betgachoparlik bilan gap qaytarishga chogʻlaganimizda eslasak, balki ularning **koʻnglini ogʻritib qoʻyishdan** saqlanarmiz. (60-bet)

<sup>2</sup> Эволюционная теория Ж. Б. Ламарка

Inson idrokining rasoligi, aqli komilligining alomati shuki, do'stlaridan biri dushmanlik qilsa yo g'ururlanib ketsa bunga qarshi darhol chora ko'radi. Masalan, avval yumshoq so'z bilan, so'ng esa keskir so'zlar bilan **ko'ngli yaralanadi**. Bu ham ta'sir etmasa, qo'l bilan uriladi. (131-bet)

Qilgan ishlari yodiga tushib, **noshod ko'ngliga o'tlar tutashdi**. Oh urganicha o'rnidan turib, Ka'ba ehromi sari yo'lga tushdi. (32-bet)

Bir kuni chol bechoraning qo'llari qaltirab, osh suzib berilgan chinni kosani tushirib, sindirib qo'ydi. Buni ko'rgan kelini nordon gap aytib uning **ko'nglini vayron qildi**. (49-bet)

Frazeologik birliklarning xarakterli tomoni shundaki, ularda qo'shimcha ma'no va ma'no qirralari kuchli ifodalanadi. Ahmad Abdullayev aytganidek, "frazeologizmlar nominativ va ko'shimcha ottenkalarning ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir. Frazeologizmlarning ko'pchiligi nutqda ma'lum uslubiy maqsadlar, ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi"<sup>3</sup>.

Tilda frazeologik gradatsiyaning mantiqiy aspekti so'zlovchi va tinglovchining ongi va tafakkur darajasini nazarda tutadi. Frazeologik gradatsiyaning lingvistik aspekti esa, so'zlovchi yoki yozuvchi va tinglovchi yoki o'quvchining nutq mahsulini yaratish va uni qabul qilishi jarayonidagi lingvistik tajribasi, yoki lingvistik kompetensiyasining darajasiga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki muayyan til egalari o'z ona tilini bir xil darajada bilmasligi va bir xil darajada undan foydalanmasligi tabiiy holdir.

**ko'nglini ko'tarmoq – ko'nglini ovlamoq – ko'nglini olmoq:** Sovchi qo'ygan kishi qizning ahvolidan xabardor edi. "Bu qiz nogiron bo'lgani sababli unga hech kim uylanmaydi. Sog'lom va chiroyli bo'lganida hamma ketidan chopib, holi-joniga qo'ymasdi. Men shu bechoraga uylanib, **ko'nglini ko'taray**", degan qaroridan qaytmaydi. (83-bet)

Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi, ma'sumona so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosining **ko'nglini ovlab**, uning g'am va alamlarini bir oz bo'lsada, engillatardi. (49-bet)

Ko'pchilik «onangni bu erga olib kelib xunuk muomala qilganingdan ko'ra, o'z uyingda shirin muomala bilan **ko'nglini olsang** savobliroq bo'larmidi! Onani ko'pchilik huzurida behurmat qilishing - Ka'bani vayron qilish gunohi bilan barobar emasmi?» - deb to'g'ri tanbeh berdilar. (51-bet)

Frazeologik graduonimlarda konnotativ ma'nolarning mavjudligi ularning emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega ekanligini ko'rsatib turadi. Badiiy asar tilidagi frazeologik graduonimlarni, turli struktur-semantik o'zgarishlarga uchrashini o'rganish yozuvchining umumxalq tilini rivojlantirishdagi xizmatlarini belgilashgina emas, balki muallifning o'ziga xos uslubini, til vositalaridan saralab foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga ham katta yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b. 2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b. 3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.

2. Tilavova M. TOHIR MALIKNING" ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZELOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI //Science and innovation in the education system. –2023. –T. 2. –No. 5. –C. 197-203.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10472607>

<sup>3</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.–88 б.

3. Yo'ldasheva .D Nutqiy muloqotda sukut hodisasi "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot:tajriba va muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent. 23-oktabr, 2023. –121-126-b.
4. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING" ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. Science and innovation in the education system, 2(5), 197-203.
5. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING" ODAMIYLIK MULKI" MATNI TARKIBIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING AYNAN HAMDA OKKAZIONAL O'ZGARISHLAR
6. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING" ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. Science and innovation in the education system, 2(5), 197-203.